

**Madaniy meros agentligining 2024 yil 3-chorak faoliyatida
korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini
maqsadida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

02.10.2024 yil

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son hamda 2021-yil 6-iyuldagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-5177-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, Madaniy meros agentligi direktorining 2023 yil 23-maydagi 83-R-son buyrug‘i bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlar tasdiqlangan.

Hisobot davrida Agentlikda Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish maqsadida 11 ta ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilib qabul qilingan.

Jumladan, Madaniy meros agentligi, uning tizim tashkilotlari va tarkibiy bo‘linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati, Manfaatlarni ta‘minlash bo‘yicha Nizom, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti, Xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma, Kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma, Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma, Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti, Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom, Agentlikka aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti hamda Xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamenti kabi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Agentlik tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2024-yil yarim yilida 14 ta tadbirlar amalga oshirildi. Hisobot davrida manfaatlar to‘qnashuv holati aniqlanmadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonunchilik talabalari asosida ishlab chiqilgan shartlar agentlikning xo‘jalik shartnomalariga kiritilishi ta‘minlandi, Madaniy meros agentligi va uning tizim tashkilotlariga ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o‘tkazish tizimi yaratilib, har bir nomzod bo‘yicha belgilangan tartibda tekshiruvlar o‘tkazilishi ta‘minlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-81-son qaroriga ko‘ra, 2024-yilning 3-chorak yakunlari bo‘yicha talab etiladigan barcha ma‘lumot va hisobotlar «eanticor.uz» elektron platformasiga kiritilishi ta‘minlandi.

Bundan tashqari, joriy yilning yarim yiligi davomida Agentlikda tanlov asosida ishga qabul qilinuvchi barcha nomzodlar ustidan tekshiruvlar amalga oshirildi.

Agentlikning rasmiy saytida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi mas'ul xodimi, tizim xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish va unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish yuzasidan yo'llagan murojaatnomasi, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tashkil qilish yuzasidan ishlab chiqilib tasdiqlangan ichki idoraviy hujjatlar, targ'ibot materiallari hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot xaqidagi ma'lumotlar joylashtirildi.

Shuningdek, e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (ishonch telefoni va elektron pochta) aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat faoliyati uchun ma'sul xodim haqidagi ma'lumotlar joylashtirilib, ushbu ma'lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi.

Madaniy meros agentligi tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar <https://vacancy.argos.uz/> sayti orqali ochiq tanlov asosida qabul qilinib kelinmoqda, Madaniy meros agentligi markaziy apparatining vakant lavozimlariga qo'yiladigan malaka talablari ishlab chiqilib, nomzodlarni test sinovlari va suhbat o'tkazish orqali ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida maxsus ishchi komissiya nazorati ostida tanlab olish tashkil etilgan. Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar agentlikning <https://madaniymeros.uz/> rasmiy veb saytiga joylashtirilgan.

Madaniy meros agentligi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat ruhini shakllantirish maqsadida tizim xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonunchilik talablari yuzasidan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan o'quv dasturi ishlab chiqilib tasdiqlandi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'limi bosh mutaxassisi**

B.Rashidova